

PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK FANLARNING BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARDA TASHKILY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich

*BuxDU Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrası dotsenti, (PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik-psixologik fanlarning bo'lajak informatika o'qituvchilarda tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari hamda tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy faoliyati tuzilishi, komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlarini takomillashtirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *tashkiliy-pedagogik kompetentlik, qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, umumlashtirish, so'rovnoma, test, intervyu, modellashtirish, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish.*

O'quv me'yoriy hujjatlar tahliliga ko'ra "Umumiy psixologiya" fanini o'zlashtirish natijasida bo'lajak informatika o'qituvchilarida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga e'tibor qaratilishi belgilab berilgan: umumiy psixologiya fanining asosiy tushuncha va atamalarini bilishi, farqlashi va tushuntira olishi; umumiy psixologiya fanining mazmuni, mohiyati, psixik taraqqiyot jarayoni, psixik rivojlanishga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari va qonuniyatlarini, psixik rivojlanishning asosiy xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; talaba shaxsidagi bilish jarayonlar va ruhiy holatlarning yuzaga kelish mexanizmlarini, qonuniyatlarini bilishi, shaxsning tashqi omillar ta'siriga berilishiga doir bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi; axborotlar tezligini anglashi, o'z-o'zini boshqara olishi, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni bilishi va ulardan foydalana olishi, psixologiya faniga oid adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi kabi ta'lim natijalari bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikning motivatsion-maqsadli tarkibiy qismini rivojlantirishga imkon berishi aniqlandi.

"Kompyuter grafikasi va WEB dizayn" fani yuzasidan bo'lajak informatika o'qituvchisi egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar mazmuni:

- kompyuter grafikasi va turlari, grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi, grafik axborotlarni kiritish, rang modeli va uning turlari, tahrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari, tezkor prototiplash texnologiyalari, HTML teglari, WEB - saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari haqida ma'lumotlar, dinamik saytlar va ularni yaratish haqida, sayt dizayni bilan ishlash to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

- rastrli, fraktal, vektorli, grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasini, grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari, tasvirlarga ishlov berish, tezkor prototiplash texnologiyalari, internetda dizayni, WEB - saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari bilan ishlash, tayyor shablonlardan foydalanib WEB-saytlarni yaratish, saytda

ma'lumotlarni joylashtirish, grafik ma'lumotlarni aks ettirish, animatsiya va bannerlarni aks ettirish, ma'lumotlarni aks ettirishda ularning o'lchamini optimallashtirish, sayt dizaynini yaratishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- grafik axborotlar bilan ishlash, grafik axborotlarni kiritish, tahrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari bilan ishlash, tezkor prototiplash texnologiyalari, WEB-dizayn yaratish elementlari bilan ishlash, sayt dizaynini yaratish, saytni baholay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarini Informatika fanlarini o'qitish, kasbiy faoliyatlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, informatikadan turli shakldagi sinf, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash, ta'lim-tarbiya sohasini axborotlashtirish yo'llari va istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish va chuqurlashtirish, informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va makalalarni shakllantirishni o'z ichiga olganligi sababli "Informatika o'qitish metodikasi" fanining mavzulariga to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz. O'quv rejaga ko'ra, ushbu fan majburiy fanlar blokiga ta'luqli bo'lib 7 semestrda 6 kredit ajratilgan, jumladan, 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy, 30 soat laboratoriya va 90 soat mustaqil ta'lim mashg'ulotlar belgilangan. Mazkur fanning namunaviy va ishchi fan dasturlarining tahliliga ko'ra, "Informatika o'qitish metodikasi" fanidan ma'ruza mashg'ulotlari quyidagi mavzularni o'z ichiga qamrab oladi: Informatika o'qitish metodikasi fan sifatida, Informatika yo'nalishidagi fanlarini o'qitishda didaktik tamoyillar, Informatika va axborot texnologiyalari kurslarini o'qitishning metodik tizimi, Elektron o'quv-metodik va dasturiy ta'minot, Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish, Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari, Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish shakllari, Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish uslublari, Informatika va axborot texnologiyalari fanidan nazorat qilish va baholash usullari, Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish natijalarini nazorat qilishning metodlari, shakli va turlari, Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, Informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'quv mashg'ulotlarini va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi, WEB-texnologiyalar va ularning informatika ta'limida tutgan o'rni kabi mavzularda nazariy ma'lumotlar talabalar auditoriyasiga taqdim etilishini ko'rishimiz mumkin.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari sifatida tavsiya etilgan mavzularda, jumladan, O'quv jarayonini tashkil etish va didaktik tamoyillar, Pedagogik dasturiy vositalar yordamida bilimni nazorat qiluvchi vositalar yaratish (Assisment), Zamonaviy interaktiv texnologiyalar (elektron doska) bilan ishlash, Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha elektron o'quv-metodik, o'rgatuvchi didaktik materiallar tayyorlash, Darsdan tashqari mashg'ulotlarning me'yoriy hujjatlari, Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari uchun didaktik materiallar, elektron o'quv-metodik materiallar tayyorlash, fan yuzasidan mashg'ulotlarni o'yinli texnologiyalar asosida tashkil

etish metodikasi kabi masalalar yuzasidan ma'ruza mashg'ulotida nazarda tutilgan mavzular mazmuniga doir amaliy topshiriqlarni bajarishga ye'tibor qaratiladi. Shuningdek, "Informatika o'qitish metodikasi" fanida mustaqil ta'lim mashg'ulotlari ham mavjud bo'lib, mashg'ulot mavzulari ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikmalarni to'ldirishga, mustahkamlashga imkon beradi. Shuningdek, fan mavzularini nazariy tahlil etish asosida ushbu fan tashkiliy-pedagogik kompetentlikning kognitiv-metodik, kommunikativ, tashkiliy-faoliyatli komponentlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot ishimiz doirasida "Umumiy pedagogika" fani bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va o'qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilangan talablar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon etishga doir bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishi bilan ahamiyatga ega. "Umumiy pedagogika" fanining ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi uchun "Umumiy kasbiy fanlar" blokining davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan bo'lib, fan "Pedagogika nazariyasi", "Pedagogika tarixi" va "Pedagogik mahorat" bo'limlaridan iborat.

Ushbu fan doirasida belgilab berilgan motivatsion-kognitiv, informatsion, kommunikativ, g'oyaviy-mafkuraviy, fuqarolikka doir, ma'naviy-axloqiy, akmeologik, aksiologik kabi ta'lim natijalari bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikning kommunikativ va tashkiliy-faoliyatli komponentlarini rivojlantirishda muhim sanaladi.

O'quv-me'yoriy hujjatlar tahliliga ko'ra bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikning kognitiv-metodik komponentiga "Axborot xavfsizligi", "Kompyuter ta'minoti", "Pedagogik dasturiy vositalar" fanlarining mazmuni samarali ta'sir etishi aniqlandi. Quyida ushbu fanlar mazmuniga to'xtalib o'tamiz: Ishchi o'quv rejaga ko'ra, Matematika va informatika bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida Axborot xavfsizligi fanidan 4 semestr uchun 2 kredit o'lchovida 14 soat ma'ruza 16 soat amaliy mashg'uloti, 30 soat mustaqil ta'lim mashg'ulotlari rejalashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu fan o'zida III modulni qamrab olib I modul "Axborot xavfsizligi", II modul "Axborotlarni himoyalash usullari", III modul "Tarmoq, Internet tizimi va Elektron pochtda axborot xavfsizligi va himoyalash usullari" deb nomlanadi va Axborot xavfsizligining asosiy tushunchalari, Axborot himoyasi va uning turlari, Axborotlarni himoyalash ta'minoti, Axborotlarni himoyalash, Kripto tizim asoslari, Simmetriyali kripto tizim asoslari, Axborot tizimlarida xavfsizlik, Internet tarmog'i himoyasini tashkil etish, Tarmoq xavfsizligi, Axborot jinoyatini aniqlash uchun huquqiy qonunchilik bazasi, Ommaviy axborot vositalaridan tanqidiy foydalanish kabi mavzularni qamrab olishi bilan tadqiqot ishimizda ahamiyatli sanaladi. Ushbu fan yuzasidan tashkil etiladigan amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida nazariy ma'lumotlarni mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlar kompyuter va multimedia

qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi, mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maksadga muvofiqligi belgilab berilgan.

“Kompyuter ta'minoti” fani 2-3 semestrda 8 kredit o'quv soati hajmida o'qitilishi rejalashtirilib, 40 soat ma'ruza, 40 soat amaliy, 40 soat laboratoriya hamda 120 soat mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etadi. Ushbu fan tadqiqot ishimizda talabalarga kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan bilimlar va amalda qo'llash uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan fan doirasida talaba tomonidan kompyuter texnikasi, arxitekturasi tushunchasi, ishlash prinsiplari, asosiy texnik vositalari mikroprotessorlar, ularning turlari, vazifalari, imkoniyatlari, ahamiyati, ulardan foydalanish, sistemali dasturlash va uning asosiy vazifalari, kompyuter resurslari, operatsion sistemalar, operatsion sistemalarning rivojlanishi va asosiy funksiyalari, operatsion sistema tarkibi: ichki (o'rnatilgan) va tashki (utilit – dasturlar), operatsion sistema buyruqlari, tarmoq operatsion, zamonaviy operatsion sistemalar, amaliy dasturiy ta'minot, matnlar, grafik va tovushli axborotlar bilan ishlash, zamonaviy ma'lumotlar bazasini boshqarish sistemalari, jadval protessorlar, intefallashgan dasturiy vositalarni ishlatish asoslarini bilish mohiyatlarini ilmiy talqin etish ko'nikmalarini o'zlashtirilishiga e'tibor qaratiladi.

“Pedagogik dasturiy vositalar” fani o'quv rejaga ko'ra Matematika va informatika bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 7 semestrda 4 kredit hajmda o'qitilishi nazarda tutilib, 20 soat ma'ruza, 20 soat amaliy, 20 soat laboratoriya hamda 60 soat mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etadi. Ushbu fan talabalarga pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish bo'yicha bilimlarning nazariy asoslarini, pedagogik dasturiy vositalarning asosiy tushunchalari, turlari, pedagogik dasturiy vositalarga quyiladigan talablar hamda pedagogik dasturiy vositalarni yaratuvchi dasturlar bilan ishlash malaka va ko'nikmasini hosil qilishi bilan dissertatsiyamizda muhimdir.

“Informatika va raqamli texnologiyalar” va “Zamonaviy dasturlash tillari” fani mazmunini, ma'ruza, seminar, amaliy, mustaqil ta'lim mavzularini tahlil etish natijasida ushbu fanlarni tashkiliy-pedagogik kompetentlikning kommunikativ komponentini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Quyida ularga to'xtalib o'tamiz: O'quv rejaga ko'ra “Informatika va raqamli texnologiyalar” fani majburiy fanlar blokiga oid, 1 semestrda 6 kredit ajratilgan, jumladan, 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy, 30 soat laboratoriya va 90 soat mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini qamrab oladi. Mazkur fanning namunaviy va ishchi fan dasturlarining tahliliga ko'ra, talabalarda kasbiy faoliyatlarida uchraydigan turli masalalarni hal qilishda informatika va raqamli texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslaridan foydalanish haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraximov D.B. Kasb-hunar kollejlarida informatikani ta'lim turlari aloqadorligida o'qitish metodikasi // Ped. fan. nom. ... dis. avtoref - Toshkent: Nizomiy nomdagi TDPU. 2007. -24 b.
2. Allambergenova M.X. Informatikadan interaktiv o'quv majmualar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish (oliy ta'lim muassasalari misolida) // Ped. fan. nom. ... dis. avtoreferati - Toshkent: Nizomiy nomdagi TDPU. 2012. – 23 b.
3. Андриянова В.И., Аннамуратова С.К. и др. Самовыражение и самореализация обучающихся как базовые личностные качества в современных условиях: Научно-методическое пособие / Под обш. ред. д.п.н., проф. Р.Х.Джурраева; д.п.н., проф. В.И.Андриянова. – Ташкент, 2014. – 160 с.
4. Арипов М.М. Юлдашев З.Х. Система определения рейтинга активности преподавателей кафедр // XII Российская конференция с международным участием “Распределенные информационно-вычислительные ресурсы” (ДИСРЪ2008) – Академгородок, Новосибирск, 2008 г.
5. Ashirova A.I. “Axborot tizimini loyihalash” fanidan dasturiy qobiq yaratish va ta'limda foydalanish metodikasi (texnika oliy o'quv yurtlari misolida) // Ped. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent: Nizomiy nomdagi TDPU. 2009. -28b.
1. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.
2. Sattarovich, A. U. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(20), 232-234.
3. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (12 (79)), 10-13.
4. Abdusalomov, U. S. (2023). DEFENDING THE MOTHERLAND IS THE OBLIGATION OF EVERY CHILD. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(1), 6-9.
5. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 6, 24-26.
6. Sattarovich, A. U. (2023). HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(12), 96-100.
7. Sattarovich, A. U. B. (2022). «HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI». Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 90-97.
8. Абдусаломов, У. С. (2023). ЗАЩИЩАТЬ РОДИНУ–ОБЯЗАННОСТЬ КАЖДОГО РЕБЕНКА. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 5(5), 13-17.